

Qashqadaryo-Surxondaryo baxshi-doston ijrochiligi an'analari ijro uslublari

Farrux Farmon o'g'li Qurbonov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek xalq dostonlari va unda Qashqadaryo-Surxondaryo baxshi-doston ijrochiligi an'analari ijro uslublari tavsifi haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Dostonchilik, o'zbek xalq musiqasi, an'ana, Qashqadaryo-Surxondaryo dostonlari, baxshi, ijrochilik.

Kashkadarya-Surkhandarya baxshi-doston performance traditions

Farrukh Farmon o'g'li Kurbanov
Samarkand State University

Abstract: This article provides detailed information on the methods of performance of Uzbek folk epics and traditions of Kashkadarya-Surkhandarya baxshi-doston performance.

Keywords: Dostonchilik, Uzbek folk music, tradition, Kashkadarya-Surkhandarya epics, baxshi, performance.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, madaniyatli, axloqan pok, ma'rifatparvar shaxs sifatida tarbiyalash ijtimoiy, siyosiy ma'naviy, jihatdan dolzarb vazifa bo'lib, hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ta'lim-tarbiya mazmuni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlangan. Haqiqatan ham ona Vatanni sevish, uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish muqaddas burchimizdir. Milliy qadriyatlarning g'oyaviy estetik ifodasi o'z o'rnida xalq musiqasi afsona, dostonlar, folklor va adabiyotda o'z ifodasini topgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim va fan sohasini yanada rivojlantirish borasidagi qaror va farmonlarida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga ustuvor ahamiyatini qaratish lozimligi ta'kidlanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar silsilasida xalq musiqa ijodiyoti eng boy va sermahsul, ommaviy tur hisoblanadi. O'zbek xalq musiqasi, uning turli ijtimoiy qatlamlariga oid an'analari ijrochilik shakli an'analari turli vohalarda yashovchi xalqlarning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etno-psixologik xususiyatlari, hayotiy

tajribasi, ijtimoiy qarashlari, mehnat faoliyati, urf-odatlarini asosida shakllangan. Ularni asrab-avaylash, unut bo'lib borayotgan namunalari tiklash, yangicha shakllarda sayqal berish va musiqaviy ta'lim-tarbiyatimizda tadbqiq etish orqali yoshlarda ma'naviy javobgarlik hissini, Vatanga muhabbat, insoniy fazilatlar, axloq-odob fazilatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa sanaladi.

Ma'lumki, O'zbekiston sarhadida ijrochilik an'analari, uslublari janrlariga ko'ra, musiqa ijodi asosan, jo'rga yo'nalishiga tarmoqlanadi. Bular, Surxondaryo-Qashqadaryo; Farg'ona-Toshkent; Buxoro-Samarqand, Xorazm musiqa uslublari. Ushbu musiqa uslublarning o'ziga xosligi, tarixiy rivojlanishi, janr an'alarini cholg'u an'alarini chuqur o'rganish muayyan ilmiy izlanish va tadqiqotlarni talab qiladi. Kuzatuv va taxlillarimiz har bir musiqiy uslublar tarkibida doston-baxshichilik san'ati juda boy va o'zining ijtimoiy-tarixiy ildizlariga, ijro uslubi va an'alariga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu boisdan ham biz o'zimizning magistrlik dissertatsiyamiz mavzusini Surxondaryo-Qashqadaryo baxshi-dostonchiligi an'alarini tinglab, musiqa ta'limida o'rganish asosida shakllantirdik.

Dostonlar haqiqiy ma'noda o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy va badiiy merosi, uning asosini, ya'ni g'oyaviy-badiiy mazmunda xalq hayoti, uning turli ko'rinishli, sevgi-sadoqat, ozodlik, erk uchun kurashi, insonparvarlik, mehnatsevarlik va do'stlik kabi oliyjanob fazilatlar o'z ifodasini topadi. Xalq dostonlari ham o'zbek mumtoz musiqasining eng yirik liro-epik janri hisoblanadi. Unda voqealar tasviri ko'pincha nasr (so'z) bilan, lirik kechinmalar she'r va musiqa uyg'unligida ifodalanadi. Shuning uchun ham dostonlarning xalqchilligi beqiyos va boqiydir. Ular asrlar osha bizning davrimizga o'zining badiiy qimmatini yo'qotmay, yashab, yanada sayqal topib, xalqimizning ajoyib qadriyati sifatida muhim o'rin egallab kelmoqda. Xalq ijodkorligi va donoligining bu nodir janri ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olishi bilan qimmatli ma'naviy boyluk sanaladi.

Xalq dostonlari juda ulkan va murakkab, noyob xazina bo'lib, uning yaratilishi va sayqal topishda ajdodlarning juda katta badiiy mehnati va iqtidori sarf bo'lgan. Xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo'lgan bu ijod namunalari jamiyat va tabiat hodisalariga inson munosabatining musiqiy poetik obrazi sifatida xalq qalbidan mustahkam o'rin olgan holda yashab keladi. Shu tufayli ham insonning hayotning turli voqea-hodisalariga munosabati o'z aksini topgan. Mazkur janrning yuzaga kelishi afsona, mifologiya, ertaklar va tarixiy voqelik aks etgan aytilmlar mutanosibligida amalga oshgan.

O'zbek xalq dostonchiligi o'z o'rnida epik hikoya, doston janri (doston, hikoya, qissa, qasida, sarguzasht deb nomlangan holda o'zining nasriy va nazmiy elementlarini musiqa cholg'usi jo'rligida ijro etilishi bilan namoyon etadi. Dostonlar she'riy va nasriy parchalardan iborat so'z (matn) va cholg'u musiqasidan, doston aytuvchining ya'ni xonandaning san'atidan va soz cherta bilish mahoratidan iborat.

Shu bilan birga dostonning bevosita tinglovchilar orasida qaynab va ilhomga cho'mib, ijrochining tinglovchi bilan jonli muloqot, badihago'ylik uslubiga tayanish doston ijrochiligida muhim o'rin tutadi.

Musiqqa ham hikoya va she'r kabi dostonchilikning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mualliflik dostonchilikda muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlarning paydo bo'lishining asosiy manbayi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy hayotidir. Ularning tili sodda, ko'rkam, ular ko'plab so'z va she'r, musiqa va aytm kabi badiiy vositalari va ijro uslublari bilan diqqatga sazovordir. Dostonlar odatga ko'ra, baxshilar, (ko'pincha, ularni shoir deb ham atashadi) tomonidan kuylanadi. Dostonlarni yuzaga kelishida, saqlanib, rivoj topishida ijrochi-baxshi (shoir), dostonchi, jirov, yuzboshilar muhim o'rin tutadilar. Qadimda "baxshi" so'zi xalqona usullar bilan bemorlarni davolovchi tabib, doira yoki boshqa cholg'u asbobini chalib, afsungarlik qilishlari orqali kasal tanasidan yovuz ruhlarni quvadigan davolovchi (hozirgacha saqlanib kelayotgan "ko'ch", "qaytarma", "Mahr" marosimlarida)-shaman baxshi yoki shaman folbinchi, shuningdek, ayrim hududlarda "ustoz" ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z xalq dostonlarini kuylaydigan ijodkor san'atkorlarga nisbatan ishlatiladi. Dostonlar mavzusi va shakllari jihatidan juda keng bo'lib, Vatanga sadoqat, qahramonlik, xalq qudrati, sof sevgi, do'stlik, tinchlik, haqiqat ishonch, umid, insoniylik kabi ezgulikni qadrlaydi. Badiiy asar sifatida yaxshilikni qadrlaydi, yomonlikni qoralaydi. Shu jihat bilan ular barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan umumbashariy manfaatlarni qadrlaydi va hamdo'stlik xarakterini kasb etadi.

O'zbekiston hududida ma'lum bo'lgan dostonlarni mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari.
2. Tarixiy dostonlar.
3. Romantik (sevgi haqidagi) dostonlar.
4. Diniy mazmundagi dostonlar.

Bulardan tashqari, jangnoma, maishiy, zamonaviy va avtobiografik dostonlar ham amaliyotda mavjuddir. Qahramonlik dostonlari o'zbek xalqining ko'chmanchi hayot kechirgan paytida yuzaga kelgan. Bu dostonlarning qahramonlari behisob kuch-qudratga ega, Vatanga sevimli yorga, xalqiga sadoqatli qilib tasvirlanadi. Shunday dostonlar sirasiga mansub dostonlardan biri "Alpomish" dostonidir. Bunday dostonlar safiga "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Yusuf va Ahmad", "Alibek va Bolibek", "Sohibqiron"larni ko'rsatish mumkin.

Dostonlarning asosiy musiqa janri-termadir. Terma-so'z va kuydan tashkil topib, musiqa cholg'usi-do'mbra yoki qo'biz va cholg'u ansabli jo'rnavozligida ijro etiladi. Har bir dostonda 5 tadan 36 tagacha kuy-ohanglar qo'llanadi. Doston kuylari "Nag'ma", "Nola", "Nolish", (ayrim joylarda na'ma yoki noma) va "Baxshi kuy" deb

ataladi. Masalan, Surxondaryoda doston nag'malari "Kelinoy nag'masi", "Qo'ng'irotnag'masi", "Go'ro'g'li nag'masi", "Sarboz nag'masi", "Otn haydash nag'masi" va hokazo. Xorazmda "Eshvoy", "Muxammas", "Qora Dali", "Norin", "Afg'on yo'li", "Nola" va hokazo deb nomlanadi.

Doston yirik epik janr bo'lib, doston aytishda har viloyat, vohaning o'ziga xos an'analari bo'lganligi kabi Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik maktabining o'ziga xos maktablari shakllangan. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilik ayrimlarining o'ziga xoslik jihatlari dostonlar, ya'ni baxshi-shoirlar qaysi cholg'u jo'rligida, qanday dostonlar ularning repertuaridan o'rin olganligi va qaysi vaqtlarda aytilishi xususiyatlari bilan boshqa maktablardan farq qiladi. Bu vohada doston ijrochilari shoir, yuzboshi yoki baxshi deb ataladi.

Surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik an'alarining izchil rivojlanishi bugungi kunlarda ham tizimli tarzda davom etmoqda. Shuning uchun ham bu maktab bugungi kunda ham o'z an'alarini yo'qotmay kelmoqda. Doston adabiy-musiqiy asar bo'lib, uning tarkibida nasriy va she'riy ohang qismlari bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak bo'lishi tabiiy holdir. Doston aytuvchi baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq kuylovchi va soz (do'mbira) cholg'u birlashgan bo'ladi. Binobarin baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so'zlash orqali hikoya qilsalar, she'riy bo'laklarni qo'shiq shaklida maxsus ichki (bo'g'iq) ovoz bilan qo'shiq aytib kuylaydilar. Bunda do'mbira sozidan jo'rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni mavsumi Qashqadaryo va Surxondaryo asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog'liq yig'im-terim ishlarini tugatganidan so'ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalari o'tkazish uchun xonadonlardan biriga taklif etiladi. Bu xonadonda mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar ham yig'ilishib baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari baxshilarni oilaviy bayram, to'y marosimlari va boshqa sayigl, hasharlarda, bayram tantanalarida ham baxshi-doston aytuvchilarni etishgan va bu odat tusiga kirgan.

Xalq og'zaki ijodida dostonlar nazm va nasrda bo'ladi. Jahon mumtoz adabiyotida alohida doston janri mavjud bo'lib, ular o'zining keng qamrovlilik, hajmining kattaligi, ko'tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy muammolari, syujetining sertarmoqliligi, drammatizmining o'tkirligi, personajlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bunday dostonlar markazida jamiyat va xalq taqdiri, jamiyat, xalq va qahramonlar taqdiri bir butunlikda yaxlit tasvirlanadi. Xalq dostonlarida xususan, Qashqadaryo-Surxondaryo baxshilari tomonidan kuylanadigan "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar "Erali va Sherali", "Oftobxon", "Gulnor pari", "Shirin bilan Shakar", kabi dostonlarda yaxshilik bilan yomonlik, mardlik, vatanni sevish, chin sevgi va xiyonat, halollik bilan manqurtlik o'rtasidagi kurash badiiy

bo'yoqlarda tasvirlanadi. Bunday dostonlar qahramonlarida vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, insonparvarlik, mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g'oyalari mujassamlashadi.

Xalq dostonlarida (Go'ro'g'li, Alpomish, Avazxon kabi) yuksallashtirish, mubolag'a tasvir ustun bo'ladi. Masalan, dostonlarda turli afsonalar, asirlar, hikoyatlar, dev parilar (Go'ro'g'li, Avazxon, Ravshanxon va Zulhumor), Xizr, ajabtovur otlar (G'irkok, Boychibor kabi), shuningdek sehr jodu ko'p ishlatiladi. Bularning barchasi xalq orasida tarqalgan diniy-mantiq mazmunidagi qarashlar najitasi bo'lib, baxshilar tomonidan dostonlarni xalq tomonida qiziqish bilan tinglanishga bo'lgan ahamiyatini oshirish maqsadida qo'llangan.

Xalq baxshilari an'anaviy uslubda (baxshi, dostonchi, xalq shoirlari), dutor, do'mbira ayrim holatlarda boshqa cholg'ular jo'rligida ijro etib kelingan va bu an'ana hozirgi vaqtda ham o'z qimmatini saqlab kelayotganligi diqqatga molikdir. Xalq folklorida mavjud bo'lgan dostonlar bilan yozma adabiyotdagi mavjud dostonlar shakl-shamoili jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsada, yozma adabiyotdagi dostonlar o'quvchining dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o'z fikr-g'oyalari bilan voqea-hodisalarni bayon qilish uslubi bilan farqlanadi.

O'zbek dostonchilik ijodi, xususan Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik an'analari asrlar davomida o'sib, sayqal topib, avlodan-avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali o'tib, shakl va mazmun jihatdan rang-baranglashib kelgan. Hozirda xalqimiz ma'naviyatidan muhim o'rin olgan Alpomish, va Go'ro'g'li turkum dostonlarida o'zbek dostonchiligining taraqqiyot yo'llari, rivojlanish davrlarini ko'rish mumkin.

Doston aytim an'anasi hozirgi kunda ham ayniqsa Qashqadaryo-Surxondaryo, Qoraqalpog'istonda yuqori saviyada davom etmoqda. Endilikda doston ijrochilarini Xalqaro, respublika tanlovlarida ishtirok etishlari, turli konsert zallarida, tadbirlarda, katta sayil va hashamlarda, radio va televideniya uyushtirilgan olimpiada va tanlovlarda o'z mahoratini keng tomoshabinlar oldida namoyish etib kelmoqdalar.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlvtini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent, O'zbekiston, 2017 yil.
2. E.Musurmonov. O'zbek folklori materiallarini to'plashga oid metodik tavsiyalar. –S.: SamDU, 2005.
3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. –T.: Fan, 2003, 332 b.
4. Bulbul taronalari. Ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari. 5tomlik. –I.: Fan, 1971-1973.
5. T.Ismailov; "CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART" "Экономика и социум" №3(82) 2021;

6. Nurmatov H. Musiqa va estetik tarbiya. –T: Nizomiy nomidagi TDPI, 1993 y.
7. S. Xudoyberganov. "So'z va soz sohibi". Toshkent. "Ilm ziyo" 2014
8. O'zbek xalq musiqasi' I-III-tomlar, Toshkent, -Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957-yil